

## **Aholini sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi**

**“Aholini sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident qarori qabul qilindi.**

*PQ-110-son 04.04.2023-yil*

Hujjatga muvofiq:

- iste'molchilar hayoti va sog'ligi xavfsizligiga talablariga javob bermaydigan mahsulotlarning noqonuniy muomolasi bilan bog'liq qilmish uchun javobgarlik kuchaytiriladi;
- etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq qilmish uchun javobgarlik ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib o'rnatiladi;
- sanitariya qonunchiligi va veterinariya, veterinariya sanitariya qoidalarini buzganlik uchun belgilangan ma'muriy javobgarlik kuchaytiriladi,
- o'zganing tovar belgisidan, xizmat ko'rsatish belgisidan, geografik ko'rsatkichidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan, adashtirib yuborish darajasida ular bilan o'xshash bo'lgan belgidan yoki firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanganlik uchun javobgarlik kuchaytiriladi.

Litsenziya bekor qilingan yoki xabardor qilish tartibida faoliyatni (harakatlarni) amalga oshirishi tugatilgan tadbirkorlik subyektlariga faoliyat turlari bilan shug'ullanishga quyidagi cheklovlar o'rnatish belilanmoqda:

### **I.Litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlari:**

Iste'mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish;

- Alkogol mahsulotlari ulgurji savdosi;
- Tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- Giyohvandik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat;
- Dori vositalarni va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish (bundan oftalmologiya tibbiy buyumlarini chakana realizatsiya qilish mustasno).

### **II.Vakolatli organlarni xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:**

- Pivo va pivo ichimliklari ishlab chiqarish;
- Alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilish;
- Umumiy ovqatlanish korxonalarini tomonidan alkogol mahsulotlarini sotish;
- Tamaki mahsulotlari bilan ulgurdi va chakana savdo qilish;
- Pivo mahsulotlari bilan ulgurji savdo qilish.

**Iste'molchilar huquqlari himoya qilinishini ta'minlash, sertifikatlanmagan, saqlash muddati o'tib ketgan, kontrafakt va iste'molga yaroqsiz tovarlarni ishlab chiqarish holatlari, hamda ularning aylanmasiga chek qo'yishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning quyidagi tartibi joriy qilinadi:**

- Murojaatlar vakolatli organlar (Adliya vazirligi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi, Soliq qo'mitasi va Chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi) tomonidan qisqa muddatda ko'rib chiqiladi.
- huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslar rag'batlantiriladi;
- musodara qilingan xavfsizlik talablariga javob bermaydigan oziq-ovqat, hamda alkogol va tamaki mahsulotlari jamoatchilik vositalari va ommaviy axborot vositalari ishtirokida yo'q qilinadi;
- 2023-yil 1-iyuldan boshlab ko'piklanadigan va tabiiy vino mahsulotlari aksiz markalari bilan markalanmaydi.

**Soliq solish metodologiyasi departamenti**